



HOZIRGI KUNDA YANGI O'ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLARDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Qoraboyev Zohid Bahodir o'g'li

Namangan davlat universiteti

+998959007090

Email: Zohidjonqoraboyev782@gmail.com

ANNOTATSIYA: Bu maqola Yangi O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda o'z o'rnini mustahkamlashga qaratilgan siyosati va strategiyasini o'rganadi. O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan beri xalqaro hamjamiyatda faol ishtirok etib, o'zining tashqi siyosatini qurishda ko'plab xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga e'tibor qaratgan. Maqolada O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT), Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) kabi xalqaro tashkilotlarda o'z o'rnini egallashi va ushbu tashkilotlar bilan aloqalar orqali erishgan yutuqlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, xalqaro tashkilotlar, BMT, ShHT, YXHT.

АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается политика и стратегия Нового Узбекистана, направленная на укрепление своих позиций в международных организациях. С момента обретения независимости в 1991 году Узбекистан активно участвует в международном сообществе и делает акцент на сотрудничестве со многими международными организациями в построении своей внешней политики. В



статье анализируется положение Узбекистана в таких международных организациях, как Организация Объединенных Наций (ООН), Шанхайская организация сотрудничества (ШОС) и Организация по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ) и достижения, достигнутые им в отношениях с этими организациями.

Ключевые слова: Узбекистан, международные организации, ООН, ШОС, ОБСЕ.

ABSTRACT: This article examines the policy and strategy of New Uzbekistan aimed at strengthening its position in international organizations. Since gaining independence in 1991, Uzbekistan has been actively participating in the international community and has focused on cooperation with many international organizations in building its foreign policy. The article analyzes Uzbekistan's position in international organizations such as the United Nations (UN), the Shanghai Cooperation Organization (SCO), and the Organization for Security and Cooperation in Europe (OSCE) and the achievements it has achieved through relations with these organizations.

Keywords: Uzbekistan, international organizations, UN, SCO, OSCE.

Hozirgi kunda mamlaktimizda olib borilayotgan ishlarning salmog'i kundan –kunga yanayam aniqrog'i soat sayin kengayib bormoqda. Albatta bularning barchasi yangi O'zbekistonning kelajagi hususan ulg'ayib borayotgan yosh avlod kamoli uchundir. 2025-yil holatiga ko'ra O'zbekiston aholisi 38 millionni tashkil etmoqda. Markaziy Osiyoda aholi salmog'i bo'yicha O'zbekiston yetakchilik qilmoqda. O'zbekiston aholisi yiliga deyarli bir million kishiga ko'paymoqda. Aholining 60% ini 30 yoshgacha bo'lgan aholi tashkil etadi. Bu esa hozirgi tahlikali dunyoda ko'plab yirik davlat raxbarlarining qiziqishini uyg'otmoqda. Globallashib borayotgan dunyoda Markaziy Osiyo davlatlari aniqrog'i turkiy davlatlar o'zaro yaqinlashib bormoqda. Bu zamon talabi desak mubolag'a bo'lmas. Buni



biz turkiy davlatlar tashkilotidan ko'rishimiz mumkin. Turkiy davlatlar tashkiloti nima? U qanday va qachon tashkil topgan? Yuqoridagi savollarga quyidagicha javob beramiz:

Turkiy davlatlar tashkiloti: Hozirgi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti deb nomlanuvchi xalqaro tuzilma turkiy tilli xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida 2009-yil 3-oktabrda imzolangan "Naxchivan shartnomasi" asosida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi nomi bilan Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkiya hamkorligida tashkil etilgan edi. Vengriya ushbu tashkilotga 2018-yili kuzatuvchi sifatida kirishini ma'lum qildi. 2018-yilning 30-aprelida O'zbekiston ham bu kengashga a'zo bo'lish istagini bildirdi va 2019-yil 14-sentabrda tashkilotning to'laqonli a'zosiga aylandi. [1.B-1.]

Ushbu tashkilotga a'zo va kuzatuvchi davlatlar hududi 4million 200 ming km kv metr hududa 150 millionda ziyod aholini o'z ichiga qamrab oladi. Tshkilot o'zaro hamkorligi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

BMT: Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbuslari natijasida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Toshkentda Afg'oniston bo'yicha xalqaro konferensiya tashkil etilgan bo'lsa, 2018 yilda BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi va "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi hamda BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi faoliyati joriy qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston tomonidan Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish bo'yicha bildirgan taklifi asosida 2021 yilning 18 may kuni BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi



qabul qilinishi xalqaro darajada ilgari surilayotgan tashabbuslarning amaliy natijasi bo'ldi.[2.B-1]

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) — mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti. Xitoyning Shanxay shahrida 6 mamlakat — Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston O'zbekiston davlat rahbarlari uchrashuvida tuzilgan (15-iyun 2001-yil). SHHTning vujudga kelish tarixi „Shanxay beshligi“ deb atalgan uyushma faoliyati bilan bog'liqdir.

Dastlab [Qozog'iston](#), [Xitoy](#), [Qirg'iziston](#), [Rossiya](#), [Tojikiston](#) davlatlari rahbarlari („Shanxay beshligi“) uchrashuvi bo'lib o'tgan. [3.B-1] Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT): O'zbekiston ShHT a'zosi bo'lib, mintaqaviy xavfsizlik, savdo va sarmoyaviy aloqalarni rivojlantirishga e'tibor qaratadi. ShHT orqali O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonning ushbu tashkilotdagi ulushi 12.6% tashkil etadi.

Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT): O'zbekiston YXHTda ishtirok etib, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirishga harakat qiladi. YXHT doirasida O'zbekiston inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi sohalarida ish olib boradi.

O'zbekiston xalqaro tashkilotlarda ishtirok etib, o'zining xalqaro mavqeini mustahkamlash, mintaqaviy va global savdo hamkorliklarini rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va tinchlikni saqlash bo'yicha keng ko'lamli sa'y-harakatlar amalga oshiradi.

Xulosa

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etishi uning mintaqaviy va global miqyosda o'z mavqeini mustahkamlashiga, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishiga,



xavfsizlikni ta'minlashiga va inson huquqlarini himoya qilishga katta hissa qo'shadi. Mamlakat Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Eurasia Iqtisodiy Ittifoqi va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi kabi tashkilotlar bilan hamkorlik orqali o'zining tashqi siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirib, xalqaro hamjamiyatda obro'-e'tiborini oshiradi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasida amalga oshirgan islohotlar va dasturlari mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, shuningdek, xalqaro munosabatlarning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday faol siyosat O'zbekistonning mintaqaviy tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashiga yordam beradi. Kelajakda O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni davom ettirishi va bu hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar va islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, mamlakatning xalqaro miqyosda o'z mavqeini yanada mustahkamlashiga olib kelishi mumkin. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi o'rne va ahamiyati uning tashqi siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish va mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga olib keladigan asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turkiy davlatlar tashkiloti qanday tashkilot va u nima uchun kerak. <https://daryo.uz>
2. Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida O'zbekistonning ko'p tomonlama diplomatiyasi. <https://uza.uz>
3. Shanxay hamkorlik tashkiloti. <https://uz.wikipedia>